

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Kengashining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

→ Kengashda institutda o'quv binolari, talabalar turar joylarida ta'lif olish uchun yetarli shart-sharoitlarning yaratilganligi, kredit-modul tizimida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, 2024/2025 o'quv yilida grant loyihalarini tayyorlash, ilmiy maqolalarini chop etish va institut reytingini oshirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar, 2024/2025 o'quv yilida institutda o'tkaziladigan xalqaro, respublika va OTM miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalar, ilmiy unvon olish uchun Oliy attestatsiya komissiyasiga hujjatlarni yuborish, kafedralardagi mavjud bo'sh-vakant o'rnlarga "O'zbekiston ovozi" gazetasining 2024 yil 21 avgustdagi 33-sonida berilgan tanlov to'g'risida, professor-o'qituvchilar tomonidan yozilgan adabiyotlarni Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Muvofiqlashtiruvchi Kengashda ko'rib chiqish uchun yuborish va monografiyalarni chop qilishga tavsiya etish, talabalarining ijara xonadonlariga joylashtirilish holati kabi institut hayotiga aloqador bir qator masalalar muhokama qilindi.

↔ Ushbu masalalar yuzasidan mutasaddilarning axborotlari tinglandi hamda barcha mas'ullarga tegishli topshiriqlar berildi.

O'zbekiston-Turkiya III ta'lim forumi taassurotlari

Joriy yilning 27-29-sentabr kunlari Turkiyaning Istanbul shahrida O'zbekiston-Turkiya III ta'lim forumi bo'lib o'tdi.

Mazkur forumda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining ijtimoiy rivojlantirish departamenti rahbari, Oliy ta'lim kengashi raisi Odil Abdurahmonov rahbarligidagi mamlakatimiz delegatsiyasi tarkibida 30 ga yaqin OTM rektorlari bilan birqalikda ishtirok etdik.

Forumning sho'ba yig'ilishlari doirasida ikki davlatning 86 ta oliy ta'lim muassasalari rektorlari ishtirokida B2B shaklida qator hamkorlik masalalari muhokama qilindi. Muzokaralar yakunida o'zaro hamkorlik aloqalarini kengaytirish borasida 60 dan ortiq memorandum, kelishuv va shartnomalar imzolandi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining xalqaro aloqalarini yanada kengaytirish, yangi hamkorlar topishda mazkur forumning ahamiyati juda yuqori bo'ldi.

Jumladan, forum doirasidagi tadbirlar bilan bir qatorda, Turkiya Respublikasining Ege universiteti rektori, professor Nejdet Budak, Gaziantep universiteti rektori, professor Arif O'zaydin, Kayseri universiteti rektori, professor Kurtulush Karamustafa, Afyon Kocatepe universiteti prorektori, professor Shuayip O'zdemir, Anqara universiteti rektori, professor Nejdet Unuvar hamda Bartin universiteti rektori Orhan Uzunlar bilan uchrashuv o'tkazdik.

Uchrashuvlarda oliy ta'lim muassasalarining imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda hamkorlik aloqalarini o'rnatish va kengaytirish, uning doirasida amalga oshiriladigan ishlar muhokama qilindi.

Shu bilan birga, mazkur oliy ta'lim muassasalari bilan talabalar, magistrler, ilmiy tadqiqotchilar va professor-o'qituvchilar almashinuvini tashkil etish, oliy ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan konferensiya va simpoziumlarda o'zaro professor-o'qituvchilar ishtirokini ta'minlash, ilmiy maqola va tadqiqotlarni nashr qilishda hamkorlik qilish, videokonferensiylar tashkil qilish, kelgusida qo'shma ta'lim dasturlarini yo'lga qo'yish kabi muhim vazifalar qamrab olingan jami 6 ta hamkorlik memorandumi imzolandi.

Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, Istanbul texnika universitetida o'tkazilgan forumning tantanali ochilish marosimida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Folklor va etnografiya" kafedrasi o'qituvchisi Kamoliddin Sunnatillayev ham o'zining musiqiy chiqishi bilan ishtirokchilarning e'tirofiga sazovor bo'ldi.

Bir so'z bilan aytganda, mazkur forumda ko'plab ziyorolar bilan fikr va tajriba almashdik. Turkiyadagi ilmiy va ijodiy jarayonlar bilan yaqindan tanishdik.

Ma'lumki, 24-27-sentabr kunlari O'zbekiston va Italiya o'rtasida oliy ta'lim sohasidagi aloqalarni yanada mustahkamlashga qaratilgan birinchi O'zbekiston-Italiya ta'lim forumi bo'lib o'tgan edi. Unda ham ikki tomonidan 70 ga yaqin oliy ta'lim muassasalari rahbarlari ishtirok etdi.

Bunday forumlarning ko'plab o'tkazilayotganidan bilish mumkinki, jahonda barcha sohalar kabi yurtimizning ta'lim tizimiga ham qiziqish yuqori.

Buni yuqori darajada bo'lib o'tayotgan uchrashuv va tadbirlarda dunyoning nufuzli oliy ta'lim muassasalari rahbarlari ham bot bot e'tirof etishmoqda.

Shubhasiz, bu e'tirof va qiziqishning zamirida Hurmatli Prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan islohot va yangilanishlar, sohaga berilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik mujassamdir.

O'zbekiston davlat san'at
va madaniyat instituti rektori,
professor Nodirbek Sayfullayev

Besh tashabbus olimpiadasi” sport musobaqalari bugun Teatr san'ati fakultetida davom ettirildi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida “Besh tashabbus olimpiadasi” sport musobaqalari bugun Teatr san'ati fakultetida davom ettirildi.

Fakultet dekani Ma'murjon To'rayev barcha ishtirokchilarga omad tilab, sport barchamizning kun tartibimizdagi muhim mashg'ulotga aylanishi lozimligini, zeroki, ijodkorning ijodiy kamolotida jismoniy tarbiyaning ahmiyati beqiyos ekanligini ta'kidladi.

Shuning bilan “Besh tashabbus olimpiadasi” sport musobaqalarining fakultet bosqichlari yakunlandi. Endi barcha g'oliblar institut bosqichida bellashadi.

Navbatdagi dissertatsiya

himoyasi o'tkazildi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.08/28.08.2020.San.121.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning navbatdagi majlisida Ramz Qodirovning 13.00.02 – Ta'lif va tarbiya nazariyasi va metodikasi (san'atshunoslik fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Talaba-aktyorlarda sahna nutqiga oid bilim va ko'nikmalarni takomillashtirish texnologiyalari" mavzusidagi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi himoyasi bo'lib o'tadi.

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Jahongir Mamatqosimov ilmiy rahbarligida bajarilgan mazkur dissertatsiya ishi kengash a'zolari tomonidan qizg'in muhokama qilindi.

Majlis yakunida kengash qaroriga ko 'ra Ramz Qodirovning "Talaba-aktyorlarda sahna nutqiga oid bilim va ko'nikmalarni takomillashtirish texnologiyalari" mavzusidagi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi mufaqqiyatli himoya qilindi deb topildi.

"Besh tashabbus olimpiadasi" sport musobaqlari bugun Xalq ijodiyoti fakultetida davom

ettirildi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, iqtidorli sportchilarni saralash hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga qaratrilgan "Besh tashabbus olimpiadasi" sport musobaqalari bugun Xalq ijodiyoti fakultetida davom ettirildi.

Musobaqalarni ochib berar ekan, Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor Shohbek Ergashev mazkur musobaqaning bosh maqsadi avvalo, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish ekanligini, g'alaba esa qo'shimcha rag'abat ekanligini ta'kidlab, ishtirokchilarga omad tiladi.

↗ Fakultetning sportsevar talabalari sportning futbol, yengil atletika, stol tennisi, voleybol va basketbol turlari bo'yicha o'zaro bellashdi. G'oliblari institut bosqichida fakultet sharafini himoya qilishadi.

0'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida "Yangi O'zbekiston – yangi davr qo'g'irchoq teatrлари" mavzusidagi respublika ilmiy-

amaliy konferensiyasi o'tkazildi.

□ Konferensiyada institutda faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilar va tadqiqotchilar bilan bir qatorda, institutning Farg'ona mintaqaviy filiali hamda Nukus filiali professor-o'qituvchilari, shuningdek, yurtimizning deyarli barcha Qo'g'irchoq teatrлari direktor va bosh rejissorlari ishtirok etib, soha tarixi, bugungi kundagi faoliyati va rivojlanish tendensiyalariga oid fikr-mulohazalarini bildirishdi.

□ Anjumanni kirish so'zi bilan ochib berar ekan, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Baxtiyor Yakubov bugun tobora globallashayotgan hamda mafkuraviy hurujlar ko'paygan bir davrda bolalar ongi va ruhiyatini turli yot g'oyalardan asrash, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun qo'g'irchoq teatrlarining roli juda ham yuksak ekanligini, shu ma'noda, bugungi konferensiya mamlakatimizdagi qo'g'irchoq teatrlarining yutuq va kamchiliklarini o'rganish, yutuqlarini keng targ'ib etish, muammolarning yechimini izlashda muhim ahamiyat kasb etishini qayd etib, anjuman ishiga muvaffaqiyat tiladi.

□ Konferensianing yalpi majlisida "O'zbek qo'g'irchoq teatrida an'ana va zamonaviy taraqqiyot masalalari", "Yangi davr qo'g'irchoq teatri rejissyorlarining ijtimoiy, ma'naviy va estetik normalarining shakillanish omillari va ularning yechimi", "Yangi O'zbekistonda qo'g'irchoq teatr san'atiga yangicha yondashuv", "Qo'g'irchoq teatrida tarixiy shaxslarning obrazи", "Проблема невыразительных голосов актёров в профессиональных театрах кукол", "Fan, ta'lif va ishlab chiqarish integratsiyasi masalalari", "Qo'g'irchoq teatr san'atida musiqa" kabi ko'plab dolzarb mavzular qamrab olingan ma'ruzalar yig'ilganlar e'tiboriga havola etildi.

Konferensiya to'plamida 50 dan ortiq maqolalar jamlangan bo'lib, ularda mualliflar umuman zamonaviy qo'g'irchoq teatri qanday bo'lishi kerak? Bugun qanday mavzulardagi spektakllarga ehtiyoj bor? Va boshqa ko'plab dolzarb va muhim savolarga javob berishga intilgan.

Konferensiya yakunida barcha ishtirokchilar sertifikat bilan taqdirlandi.

Besh tashabbus olimpiadasi" sport musobaqalari davom etmoqda.

Avval xabar berganimizdek, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Kutubxona-axborot faoliyati fakultetida "Besh tashabbus olimpiadasi" sport musobaqalarining fakultet bosqichi bo'lib o'tmoqda.

Bugun Kino, televideniye va radio san'ati fakulteti talabalari sportning futbol, yengil atletika, stol tennisi, voleybol turlari bo'yicha o'zaro bellashdi. G'oliblari institut bosqichida fakultet sharafini himoya qilishadi.

Giyohvanlikka qarshi kurash

davr talabi

■■Bugungi kunda yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ularni giyohvandlik, psixotrop moddalarga ruju qo'yishlarini oldini olish har qachongidan ham dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Zeroki, so'nggi yillarda yangi turdag'i sintetik giyohvandlik vositalari va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar paydo bo'layotganligi, ular inson omilisiz internetning ijtimoiy tarmoqlaridan foydalangan holda aholi, ayniqsa yoshlar orasida oson tarqatilayotganligi holatlari kuzatilmogda.

■Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Teatr san'ati fakulteti talabalari uchun ayni shu dolzarb muammo yuzasidan davra suhbati tashkil etildi.

Mirzo Ulug'bek tumani II0 FMB Yoshlar bilan ishlash bo'linmasi katta inspektori, kapitan Faxriddin Sayitov, Oila va xotin-qizlar masalalari bo'yicha mas'ul Dilorom Mirxalikova hamda Institut prafilaktika katta inspektori Fayzulla Akbarovlar ishtirok etgan davra suhbati avvalida Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor Shohbek Ergashev bugun yoshlar nafaqat giyohvand va psixotrop moddalarni iste'mol qilmasligi, balki bu illatning yon atrofimizda paydo bo'lmasligi uchun mas'ul bo'lishlari lozimligini, loqaydlik ham bu illatning kengashjiga zamin yaratishi mumkinligini qayd etib, talabalarni ogohlikka chorladi.

Shundan Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan bugun mamalakatimizda giyohvandlikni oldini olish, ayniqsa, yosh avlodni bu kabi illatlar ta'siridan asrash bo'yicha ko'rilibayotgan choralar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 6-maydagi "O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo'yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta'sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonining mazmun-

mohiyati va ahamiyati to'g'risida batafsil ma'lumot berib o'tildi.

□ Shuningdek, talabalar tomonidan berilgan barcha savollarga batafsil javob berildi.